

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PULATOVA MOHICHEXRA TEMIROVNA

**KRISTOFER MARLO, ABDULLA ORIPOV VA PIRIMQUL QODIROV
TALQINLARIDAGI AMIR TEMUR OBRAZLARINING
QIYOSIY TAHLILI**

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Pulatova Mohichexra Temirovna

Kristofer Marlo, Abdulla Oripov va Pirimqul Qodirov talqinlaridagi Amir Temur obrazlarining qiyosiy tahlili 3

Пулатова Моҳичехра Темировна

Сравнительный анализ образов Амир Темура в произведениях Кристофера Марло, Абдуллы Орипова и Пиримкула Кадырова 23

Pulatova Mohichekhra Temirovna

Comparative analyzes of the images of Amir Temur in the Interpretations of Christopher Marlowe, Abdulla Oripov and Pirimkul Kadirov 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PULATOVA MOHICHEXRA TEMIROVNA

**KRISTOFER MARLO, ABDULLA ORIPOV VA PIRIMQUL QODIROV
TALQINLARIDAGI AMIR TEMUR OBRAZLARINING
QIYOSIY TAHLILI**

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3549 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Bakayeva Muhabbat Kayumovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Kadirova Nargiza Arifovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 14 » mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (611 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 28 » fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil « 28 » fevral dagi 26-01 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O.Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

O.M.Fayzulloev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur dahosi va uning takrorlanmas harbiy faoliyati, sarkardalik mahorati va jang san’ati masalalarining ilmiy-amaliy, nazariy talqiniga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Yevropalik tarixchilarning solnomalarida va adiblarning asarlarida buyuk bobokalonimizning hayoti va harbiy faoliyatiga, uning shaxsiga nisbatan ijobiy fikrlarni ta’kidlagan holda, haqiqatdan yiroq va g‘ayriilmiy qarashlarga bugun tanqidiy baho berib, tarixiy haqiqatni qaror toptirish, asarlar genezisi, tabiati, shakllanishiga ta’sir etgan omillar, badiiy takomil bosqichlari, mavzu va g‘oya, kompozitsiya va syujet, tarixiylik va zamonaviylik talqini, adiblarning badiiy tafakkur tarzi va qahramon tabiati kabi ilmiy muammolarni yaxlit holda tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida, xususan, Yevropa temurshunosligida ilmiy tadqiqotlar Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rnini asoslash, dunyoni chingiziylar zulmidan qutqargan zot haqidagi asarlarning g‘oyaviy va badiiy xususiyatlarini ochib berish, sohibqironning hayoti va sarkardalik faoliyatiga berilgan baholarni aniqlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Shu jihatdan ingliz uyg‘onish davri adabiyotining atoqli namoyandasi Kristofer Marlo, Abdulla Oripova hamda Pirimqul Qodirov yaratgan sohibqiron Temur obrazlarining tarixiy haqiqatga qanchalik mosligi, mazkur obrazlarni yaratishda tarixiy manbalarning ta’siri, ushbu asarlardagi Temur obrazining o‘zaro mushtarak va o‘ziga xos jihatlarni aniqlashtirish, Amir Temur obrazining yaratilishi omillarini o‘rganish va nazariy asoslashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yuksak e’tibor bilan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bosqichda barcha sohalar kabi qiyosiy adabiyotshunoslik ham o‘z oldiga jahon standartlariga mos salmoqli tadqiqotlar yaratish vazifasini qo‘ydi. “Qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g‘oyalarga asoslangan boy ma’naviy merosi umumbashariy sivilizasiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e’tirof etiladi. Ulug‘ ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmasevtika, me’morlik, tarix, adabiyot, san’at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi”¹. Shu ma’noda Amir Temur haqida yaratilgan asarlarni o‘rganib, ularda sohibqiron obrazlarining berilishini qiyosiy tahlil qilish yosh avlodni xalqimizning buyuk ma’naviy merosiga hurmat, yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

¹ Mirziyoev Sh.M. Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2018 yil 4 avgust.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-380-sonli "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-son "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash milliy dasturi" va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida Kristofer Marlning "Tamburlaine the Great" ("Sohibqiron Temur")* asari haqida qator ilmiy asarlar yaratilgan. Bularga rus adabiyotshunoslari A.T.Parfyonov, V.V.Georgiyevskaya, I.N.Puchkova, A.Yu.Yakubovskiy, o'zbek adabiyotshunoslari X.Karomatov, O.Dadaboyev, B.Axmedov, I.Mo'minov, ingliz-amerika adabiyotshunoslari H.Lamb, J.Marozzi, E.A.Poe, H.Hukhem va boshqa asarlar²ni misol qilib olish mumkin. Bu tadqiqotlarda asosan Kristofer Marlning "Tamburlaine the Great" ("Sohibqiron Temur") asarida qo'llangan harbiy leksemalarning semantik tahlili, asarning ingliz teatr san'ati rivojida o'rni hamda asarning yaratilishi uchun asos bo'lgan sarchashmalar tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishini yozish jarayonida yuqorida ko'rsatilgan va boshqa bir

*Asar aslida "Buyuk Temurlang" deb tarjima qilinadi, lekin tarjimon Ma'ruf Jalil sarlavhani "Sohibqiron Temur" tarzida o'giran.

² Парфенов А.Т. Кристофер Марло и легенды Востока и Запада // Марло Кристофер. Две трагедии. – М.: Высшая школа, 1980. – 285 с.; Георгиевская В.В. «Филологические идеи Никколо Макиавелли в трагикомедии Кристофера Марло «Малбгийский Еврей». В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. XIX междунар. науч.-практ. конф. Часть II. – Новосибирск: СибАК, 2013. - С. 29–34.; Пучкова И.Н. Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2015. №2. Ч.2. – С. 161-164; Якубовский А. Ю. Тимур "опыт краткой характеристики" // Вопросы истории. № 8–9.- Москва, 1946. - С. 42–74; Кароматов Х.С. Истоки, оригинал и узбекский перевод трагедии Кристофера Марло «Тамерлан Великий». Дисс. канд. филол. н. - Т., 1990. – 172 с.; Дадабоев.О. О степени исторической достоверности образа Амира Темура в драме К.Марло «Тамерлан Великий». Вестник Челябинского государственного университета. № 29 (320). Филология. Искусствоведение. Вып. 83., - Челябинск, 2013. - С. 37–39.; Axmedov V. Sohibqiron Temur: Nayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, - Toshkent, 1996. - 640b.; Lamb H. Tamerlane the Earth Shaker - London: Kessinger Publishing, 2005. – 356 p.; Marozzi J. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. Harper Perennial. - UK , 2005. – 480 p.; Edgard Allan Po. Buyuk Temur. Akmal Saidov tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 304 b.

qator o'zbek va jahon adabiyotshunoslarining sohibqiron Amir Temur haqidagi tadqiqotlari e'tiborga olindi va ularga munosabat bildirildi. Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy drammasi va Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" hamda "Amir Temur siymosi" asarlarida sohibqiron Temur obrazi esa hali chuqur o'rganilmagan.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning ilm-ma'rifat haqidagi asarlari³ hamda taniqli olimlar V.V.Georgiyevskaya, I.N.Puchkova, A.T.Parfyonov, H.Lamb, J.Marozzi, X.Karomatov, O.Dadaboyev, B.Axmedov, B.Ermatov, I.Mo'minov, G.Yusupova, D.Rasulmuhammedova, M.Yakubovlarning Amir Temur timsoli yoritilgan ilmiy ishlari⁴ tadqiqotimizning nazariy asosi sifatida xizmat qildi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, Kristofer Marlo, Abdulla Oripov hamda Pirmqul Qodirovlar talqinidagi Amir Temur obrazlarini tahlil qilib, ulardagi mushtaraklik hamda o'ziga xosliklari qiyosiy aspektda o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasida ilmiy tadqiqot rejasining "G'arbu Sharq adabiyotida adabiy an'analar sintezi" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Kristofer Marlo, Abdulla Oripov va Pirmqul Qodirov talqinlaridagi Amir Temur obrazlarining mushtarak va o'ziga xosliklarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz uyg'onish davri adabiyotining atoqli namoyandasi Kristofer Marloning jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rnini ilmiy baholash;

Kristofer Marloning "Tamburlaine the Great" ("Sohibqiron Temur") asarida Amir Temur obrazi talqinini tahlil qilish;

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" asarida Amir Temur obrazining yaratilishi omillarini o'rganish;

Pirmqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" va "Amir Temur siymosi" asarlarida Amir Temur obrazini qiyosiy tahlil qilish;

Kristofer Marlo, Abdulla Oripova hamda Pirmqul Qodirov yaratgan sohibqiron Temur obrazlarining tarixiy haqiqatga qanchalik mosligi, mazkur obrazlarni yaratishda tarixiy manbalarning ta'siri, ushbu asarlardagi Temur obrazining o'zaro mushtarak va o'ziga xos jihatlarni aniqlashtirish.

³ Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent – O'zbekiston. 2017. – 488 B, Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent – O'zbekiston. 2016. – 56 B.

⁴ Karomatov X.C. Истоки, оригинал и узбекский перевод трагедии Кристофера Марло «Тамерлан Великий». Дисс. канд. филол. н. - Т., 1990. – 172 с, Ermatov B.S. G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotida Amir Temur siymosi (sarchashmalar, tasavvur va talqinlar). Fil.fan.dok. (DSc) diss... – Toshkent., 2019. – 232 b., Dadaboyev O. G'arb va Sharq kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Fal.fan.dok. (PhD) diss... – Toshkent., 2019. – 140 b.; Karomatov X. Истоки, оригинал и узбекский перевод трагедии Кристофера Марло "Тамерлан Великий" Дисс. канд. фил.наук. –Т.,1990. Yusupova G.A. Hozirgi o'zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqini. f.f.n.diss.avtoref.. – Toshkent, 2005. – 26 b; Rasulmuhammedova D.Istiqlol davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari". f.f.n.diss.avtoref. –T,2000. B– 21.; Yakubov M. "Inglizabon adabiyotda Amir Temur siymosi". f.f.d.avtoref..Buxoro., 2021.– 46 b.

Tadqiqotning obyekti. Kristofer Marlning “Sohibqiron Temur”, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” hamda Pirmqul Qodirovning “Ona lochin vidosi”, “Amir Temur siymosi” asarlari va ular haqida yozilgan ilmiy ishlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazlarining qiyosiy talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-badiiy, psixanalitik, elementar statistik, ijtimoiy-madaniy va kompleks tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kristofer Marlning “Sohibqiron Temur” (“Tamburlaine the Great”), Abdulla Oripovning “Sohibqiron” hamda Pirmqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” va “Amir Temur siymosi” asarlaridagi Amir Temur obrazlarida muayyan darajada tarixiy haqiqat mavjudligi va uning badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashib ketganligi asoslangan;

Kristofer Marlning “Sohibqiron Temur” asarida gumanizmdagi mutlaq ozod inson g‘oyasi bilan bir qatorda Makiavelizm oqimining shaxs nafaqat ijtimoiy kelib chiqishi, balki axloq qoidalaridan ham erkin bo‘lishi, o‘z maqsadlari yo‘lida jinoyatlar sodir etishi hamda aynan shu intilishlar shaxsdagi o‘sib boruvchi egoizmi oshirib, uni falokatga duchor etish mumkinligi kabi g‘oyaviy hamda kompozitsion, syujet qurilishidagi badiiy vazifalari dalillangan;

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarida Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyatidan ko‘ra, uning shaxsiyati, ruhiy holati, insonlarga bo‘lgan munosabati, oila, jamiyatga nisbattan qarashlari hamda ichki kechinmalari tasvirlangan bosh qahramoning psixologik shakllanib borishi va buyuk shaxs darajasiga ko‘tarilish bosqichlari birin ketin ochib berilganligi isbotlangan;

tahlilga tortilgan har uchala ijodkor talqinidagi sohibqiron Temur obrazida uning botir va qo‘rqmas lashkarboshi sifatida o‘z kuchi va aqli bilan ulkan saltanat barpo eta olganligi, ayollarga bo‘lgan cheksiz hurmat-ehtiromi va yengilmas irodasi hamda tengsiz jasorati madh etilganligi G‘arbu Sharq falsafasi va madaniyati mutanosibligida ifodalanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kristofer Marlning “Tamburlaine the Great” (“Sohibqiron Temur”) asarida haqiqat va badiiy to‘qimaning qo‘llanilishi ilmiy izlanishlar zaminida asoslanib, “Tamburlaine the Great” (“Sohibqiron Temur”) asarining yozilishiga asos bo‘lgan buyuk sarkarda Amir Temur shaxsi XVI asr tarixchilari talqinida qanday tasvirlanganligi va adabiyotda Amir Temur obrazi yaratilishida tarixiy faktlarning o‘rni ilmiy dalillangan;

Pirmqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” asari va “Amir Temur siymosi” ilmiy badiasida Amir Temur obrazining yaratilishi va tarixiy faktlarning berilishi nazariy asoslangan;

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarida Amir Temur shaxsiyati yoritilib, buyuk sarkarda obrazining badiiy talqinlarida leksik uslubiy vositalarning o‘rni tadqiq qilingan;

Kristofer Marlo, Abdulla Oripov hamda Pirimqul Qodirov yaratgan Amir Temur obrazi tasviridagi o‘zaro mushtarak va o‘ziga xosliklar qiyosiy tahlil etilib ilmiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, qo‘llanilgan usullar, metodlar va nazariy ma‘lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan umumlashmalar tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-badiiy, psixoanalitik, elementar statistik, ijtimoiy-madaniy va kompleks tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Hozirgi adabiy aloqalar har tomonlama kengayib borayotgan davrda diqqatga havola etilayotgan bu ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishi, undagi tahlil va tadqiqotlar natijasi bo‘lgan fikr-mulohazalardan oliy o‘quv yurtlarining filologiya yo‘nalishida adabiyotshunoslik muammolarini tadqiq etishda mazkur ish muayyan darajada ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya faktik materiallari va ilmiy xulosalaridan bakalavriyat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Stilistika”, “Matn tahlili”, “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti” o‘quv kurslari, o‘rta ta‘lim “Adabiyot” o‘quv predmeti bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, ingliz adabiyoti tarixi va o‘zbek adabiyotidan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kristofer Marlo, Abdulla Oripov va Pirimqul Qodirov talqinlaridagi Amir Temur obrazlarining qiyosiy tahlili bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Kristofer Marloning “Sohibqiron Temur” (“Tamburlaine the Great”), Abdulla Oripovning “Sohibqiron” hamda Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” va “Amir Temur siymosi” asarlaridagi Amir Temur obrazlarida ma‘lum darajada tarixiy haqiqat mavjudligi va uning badiiy to‘qima bilan uyg‘unlashib ketganligiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-oktyabrdagi № 04/1-2744-son ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘p jildlik monografiya uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashuviga va ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga erishilgan;

Marloning “Sohibqiron Temur” asarida gumanizmdagi mutlaq ozod inson g‘oyasi kengayib, Makiavelizmdagi shaxs nafaqat ijtimoiy kelib chiqishi, balki, axloq qoidalaridan ham erkin bo‘lishi, o‘z maqsadlari yo‘lida jinoyatlar sodir etishi hamda aynan shu intilishlar shaxsdagi o‘sib boruvchi egoizmi oshirib, uni falokatga duchor etish mumkinligi kabi g‘oyaviy hamda kompozitsion, ya‘ni syujet qurilishidagi badiiy vazifalariga oid nazariy va amaliy xulosalardan Buxoro davlat

universitetida 2019-2021 yillarda bajarilgan SUZ800191NO158-MOO3-raqamli xorijiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 27-iyuldagi №06-01-0302-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning ingliz va amerika adiblari qatorida ingliz dramaturgi Kristofer Marlo ijod yo'li, uning "Sohibqiron Temur" asarida buyuk bobokalonimiz Amir Temur obrazi, mazkur obrazdagi ayrim bo'rttirishlar haqida fikr yuritib, tanqidiy yondashgan holda erkin muloqot qilish asnosida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" asarida Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyatidan ko'ra, uning shaxsiyati, ruhiy holati, insonlarga bo'lgan munosabati, oila, jamiyatga nisbattan qarashlari hamda ichki kechinmalari tasvirlangan bosh qahramoning psixologik shakllanib borishi va buyuk shaxs darajasiga ko'tarilish bosqichlari birin ketin ochib berilganligi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 7-maydagi № 01-09-77-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan, 7 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriylanishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kristofer Marloning "Tamburlaine the Great" ("Sohibqiron Temur") asarida Amir Temur obrazi**" deb atalgan birinchi bobi "Kristofer Marlo asarlarining ingliz adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni", "Sohibqiron Temur" asarining yozilishiga asos bo'lgan tarixiy manbalar talqini", "Kristofer Marloning "Sohibqiron Temur" asarida haqiqat va badiiy to'qimaning qo'llanilishi" nomli uch fasldan tarkib topgan bo'lib, unda Kristofer Marloning Ingliz adabiyoti rivojlanishida tutgan o'rni, uning "Sohibqiron Temur" asarini

yozishda foydalangan manbalari talqini, asarda badiiy to‘qima hamda tarixiy haqiqatning qo‘llanilishi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Ingliz Uyg‘onish davri gumanizmining bosh g‘oyasi - shaxsning mutlaq ozodligi bo‘lib, bunda inson jamiyatdan, kelib chiqishidan, ijtimoiy ahvolidan, oilasidan, atrof-muhitdan erkin bo‘lishi ko‘zda tutilgan edi. Orzu intilishlariga erishish yo‘lida bu tushunchalar shaxsga xalaqit bermasligi, inson bulardan ajralgan holda, erkin harakat qilishi kerak deb ishonishgan. Va aynan shu chek-chegarasiz erkinlik shaxsning xudbinlik – egoizmini oshirib, uning halokatiga olib kelishi Marloning tragediyalarida yorqin aks etgan. “Sohibqiron Temur”dagi Temurlang oddiy cho‘pon bo‘lsada, uning kelib chiqishi unga butun dunyo hukmdori bo‘lishida xalaqit bermaydi, “Doktor Faustning tragik tarixi”da Faust oddiy kambag‘al olimlikdan sehr jodu yordamida o‘tmish va kelajakka sayohat qila oladigan mutlaq kuchga aylanadi, bunda u axloq qoidalariga rioya etishi shart emas, jonini shaytonga sotib bo‘lsa-da maqsadiga erishishi kerak, “Maltalik Yahudiy” asarida Varrava yahudiyligi uchun kamsitiladigan oddiy xalq vakili, biroq ayyorligi va makr-xiylalari ortidan katta hokimyatga ega, boyliklari bisyor arbobga aylanadi. Bularning barchasi Angliya uyg‘onish davri gumanizmining mutlaq ozod shaxs g‘oyasi bilan to‘ldirilgan asarlardir. Marlo esa ozod shaxs konsepsiyasiga ikkilanish bilan qarab, bunda shaxsning xudbinligi oshib, uni falokatga olib kelishini asar qahramonlari misolida ko‘rsatib bera olgan. Uyg‘onish davri insoniyat konsepsiyasining muhim xususiyati – shaxsning shakllanishi bo‘lib, gumanistlar shaxs erkinligi uchun kurashib, diniy aqidalarga qarshi chiqqanlar.⁵

XVI asr Angliya dramaturglari uchun tragediyada faqat xudo, qirol yoki yuqori pog‘onada turgan shaxslarni tasvirlash umumiy talab edi. Marlo Angliya dramasi tarixida birinchi bo‘lib, ilmiy gumanistik she‘riyatning ana shu qoidasidan voz kechib, Skif cho‘poni Temurlangni tragediyaning bosh qahramoni qilib qo‘yadi. “Sohibqiron Temur”dan keyin yozgan tragediyasida, ya‘ni “Doktor Faustning tragik tarixi”da oddiy oilada tug‘ilgan kambag‘al olimning hayotiy taqdiri asosiy o‘rinni egallaydi. Marloning ushbu asarlaridagi bosh g‘oyasi, Uyg‘onish davri gumanizmi talab etadigan, insonning qadr-qiymati uning mavqei va kelib chiqishi bilan emas, balki qilgan amallari va erishgan natijalari bilan o‘lchanishidir.

“Sohibqiron Temur” fojeasining bosh qahramoni, XIV asrning so‘ngi choragida dunyoni larzaga solgan sohibqiron Amir Temur bo‘lib, asarda u qadimgi yunon-rim sarkardalari Makedonskiy va Yuliy Sezarlar misoli e‘zoz bilan qalamga olingan.⁶

Sohibqiron haqida asar yaratgan Sharq tarixchilaridan biri Ibn Arabshoh bo‘lib, Kristofer Marlo “Sohibqiron Temur” asarini yaratishda aynan ushbu tarixchimizning asarlaridan manba sifatida foydalanganliklari ma‘lum. Ingliz sharqshunosi X.A.Gibbning (1895yilda tug‘ilgan) “Temur haqida yozilgan «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» nomli asar Ibn Arabshoh nomini uzoq

⁵ Татьяна Волосова, Марселла Геккер, Владимир Рогов. English literature. - Москва: Просвещение, 1974. – С. 80.

⁶ Xolbekov M. Marlo va Shekspir. Copyright. 2007-2008. Samarqand. №47, 17.11.2007.

vaqt Yevropada doston qildi”⁷, degan ta’biri ham o’sha davrda asarga bo’lgan qiziqish katta bo’lganligiga isbotdir.

“Ajoyib al-ma’qdur fi axbori at-Taymur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) asari Amir Temur vafotidan keyin sodir bo’lgan hodisalar va ishlar bayoni bilan boshlanadi: “Temur yerlari to’belarini tashlab, o’z gunohlari bilan darak-molikga (do’zaxga) tomon yuzlangani xabarini yetkazdi. Chopar ushbu xushxabar bilan mazkur yil ramazon oyining o’n to’rtinchisida”.⁸ Ushbu misralarda Ibn Arabshoh Amir Temurning o’limidan so’ng uning do’zaxga tomon yuzlashganligini va bunday xushxabarni ramazon oyida aytilayotganini yozadi. Bundan yozuvchining bosh qahramonga nisbatan noxolis salbiy munosabati ma’lum bo’ladi.

Kristofer Marlo ijodining markazida barcha ijtimoiy normalardan: ijtimoiy kelib chiqishi, oilasi, axloq-odob qoidalaridan ozod shaxsning shakllanish jarayoni, orzu-istaklari yo’lida uning yuqori cho’qqilarga erishishi turadi. Har bir insonning cheksiz erkinlikka va chegarasiz hokimiyatga intilish huquqini himoya qilib, Marlo “Sohibqiron Temur” asarining bosh qahramoni Temurlang(Tamburlaine)ni kelib chiqishi oddiy kambag’al cho’pon bo’lsada, o’z harakatlari, aqli, yengilmas irodasi bilan butun dunyo humkdoriga aylanganligini tasvirlaydi.

Ikki qismdan iborat, 10 aktli “Sohibqiron Temur” tragediyasi Marloga katta muvaffaqiyat keltirdi va XVI asr London teatr sahnalaridan tushmay keldi. Marlo uning birinchi qismini Kembrij universitetida o’qib yurganida yozgan, ikkinchi qismi esa oradan ma’lum vaqt o’tgach e’lon qilingan. Shu davr mobaynida Marloning hayotida bo’lgan o’zgarishlar, uning asariga ham ta’sirini o’tkazmay qolmagan, chunonkim ikkinchi qismda “Sohibqiron Temur” asarining bosh qahramoni tanib bo’lmas darajada o’zgarib ketadi.

Bosh qahramonning fikrlarida mutlaq ozod shaxs to’g’risidagi gumanistik g’oyalar o’z aksini topgan. Temurlangning barcha monologlarida – inson ruhiyatining beqiyos go’zalligi va uning imkoniyatlari hamda hayotdagi o’rni to’g’risidagi Marloning dunyoqarashi aks etgan. Har bir insonning yaxshi yashash uchun intilish huquqi borligi, ongning kuchi chegarasizligi g’oyasi Temurlangni olg’a intilishga undaydi.

Asarning birinchi qismida qahramonning tashqi qiyofasi va Osiyo bo’ylab qilgan yurishlari bayon etilgan. Bosh qahramon Temurlang – jasur, metin irodali, qiyin sinovlarga bardosh bera oladigan, dunyoni egallash haqidagi orzusining ilohiyligiga ishonchi komil shaxs. U unchalik katta bo’lmagan qo’shini bilan minglarcha fors chavandozlarini tor-mor qiladi, shuningdek, Boyazid qo’shinini va Misr podshohini yengadi.

Uyg’onish davri ingliz adabiyotida gumanizm g’oyalariga ko’ra, inson ham har tomonlama mukammal qilib tasvirlanishi shart edi, chunonkim uning tanasi mukammalligi (ideal) butun olam go’zalligini o’zida aks ettirishi kerak edi. Shuning uchun “Sohibqiron Temur” asarida bosh qahramon yelkalari keng, burgut ko’zli, aql-idroki baland, gavdasi va botirligi Yunon mifologiyasi qahramonlari

⁷ Hamilton Alexandr Gibb. Arabic literature an Introduction. Oxford University Press, 1974. – P. 102.

⁸ Ibn Arabshoh «Ajoyib al-ma’qdur fi axbori at-Taymur» (Temur tarixida taqdir, ajoyibotlar) Toshkent-“Mehnat” 1992,- B. 5.

Atlant (Atlas)ga, oltinrang jingalak sochlari esa Axiles (Achilles)ga o'xshatib sifatlangan.

Marloning Temurlangi – baland bo'ylari kelishgan, qomati salobatli, yelkalari keng, qo'llari va barmoqlari uzun, jingalak sochlari oltin rangda bo'lgan shaxs. Ko'rinib turibdiki, u oltin sochligi bilan yevropaliklarga o'xshab ketadi. Atlant Yunon mifologiyasida dunyoni keng yelkalarida ko'tarib turuvchi titan, Axiles esa "Troya urushlari"da jasurlik ko'rsatgan qahramon. Temurning ularga qiyoslangani esa gumanizmning ideal insonni yaratish g'oyasi ta'siridir.

Marlo nima sababdan Temurlangning kelib chiqishini Skiflik (Scythian) deganiga javobni esa Niderlandiyalik xaritashunos Abraham Orteliy (Abraham Ortelius) yaratgan dunyoning ilk zamonaviy geografik atlasidan topamiz. Chunki aynan Abraham Orteliy o'zining "Theatrum Orbis Terrarum"⁹ nomli atlasida Markaziy Osiyoning bir qismini Skifiya deb atagan. Asarda Temurning Skiflik cho'pon deb aytilishi, uning Markaziy Osiyodan ekanligiga ishoradir.

Marloning "Sohibqiron Temur" asariga gumanizmdan tashqari, "Makiavelizm" g'oyalarining ta'siri ham seziladi: gumanizmdagi ozod inson g'oyasi kengayib, shaxs nafaqat ijtimoiy kelib chiqishi, balki, axloq qoidalaridan ham erkin bo'lishi, o'z intilishlari yo'lida jinoyatlar sodir etish, odam o'ldirish, o'g'rilik qilish kabi istaganini ham qilishi mumkinligini ko'rsatgan. Bu intilishlar shaxsdagi o'sib boruvchi egoizmi oshirib, uni falokatga duchor etishi ham Marloning bosh g'oyalaridan biridir.

Birinchi qismning ikkinchi pardasida esa, insonning kelib chiqishi hech narsani hal qilmaydi, balki uning erishgan natijalarigina ahamiyatli degan konsepsiya asosida, bosh qahramonga nisbatdan munosabat o'zgaradi. Quyidagi misralarda, Eron shohining ukasi Xosrav (Corsoe) va uning sarkardalari Temur haqida suhbatlashib, uning mashhurlik, omad va buyuk g'alabalar peshonasiga yozib qo'yilgan jasur ekanligini aytishadi.

Kristofer Marlo Tamburlaine obrazini yaratishda foydalangan keyingi manba bu Petro Perrondini "Skiflar hukmdori Amir Temurning hayoti" asari bo'lib, unda muallif Amir Temurning shafqatsizligiga urg'u berib, Boyazid Yildirim bilan bo'lgan jang tavsilotlarida Temurning dahshatli qiynoqlariga chiday olmagan Turklar hukmdorining qafasda o'z joniga qasd qilganligini yozadi.¹⁰ Marloning "Sohibqiron Temur" asarida ham Boyazidning past qilib ishlangan qafasdagi qiynoqlari va o'z joniga qasd qilishi tasvirlangan.

"Sohibqiron Temur" asarining birinchi qismida bosh qahramon harakatlarida gumanizm va Makiavelizm g'oyalari ko'rinadi: Temurlang taxtga o'tirish orzusiga erishish uchun barcha ishga tayyor, dunyoni egallash ishtiyoqi baland, aqlli, qo'rqmas, zukko, ayyor, irodasi kuchli va eng muhimi o'z istaklarining ilohiyligiga ishonchi komil. Cheksiz qudrat sohibi bo'lsada, bosh qahramon so'ngi nafasigacha xotini Zenokratani sevadi, o'limi oldidan ham uning tobutini keltirishlarini buyurib, Zenokrataning jasadiga bosh qo'yib olamdan o'tadi; vorislarining undan

⁹ Казакова Н. А. Русский перевод XVII в. «Theatrum Orbis Terrarum» А. Ортелия // Вспомогательные исторические дисциплины. — Т. XVIII. — Л.: Изд. «Наука», 1987. — С. 121—131. — Тираж 1650 экз. (в пер.).

¹⁰ Pietro Perrondino. Magni Tamerlanus Scytarum Imperatoris Vitae. — Firenze, 1553.

keyin ham buyuk davlat hukmdori bo'lishlarini istaydi; yaqinlarini hamda sarkardalarini doim rag'batlantiradi.

Asarning ikkinchi qism uchunchi pardasi ikkinchi sahnasida Zenokratanning tobuti olib kiriladi, buni ko'rgan Temurlang o'g'illari bilan hasratlashib, xotinini qanchalik qattiq sevganligini va uni abadiy yuragida saqlashini aytadi. Va aynan shu voqeadan keyin, uning dunyodan o'ch olish motivi kuchayib, ko'pgina mamlakatlarni bosib oladi. Asar davomida esa u qarshisida undan qudratliroq zot bo'lmagan mutlaq kuchga aylanadi va uch o'g'lini ham o'ziday xudoning yerdagi qamchisi bo'lishlariga undaydi. Bobilni bosib olgach esa, xudoning qudratiga shubha bilan qarab, o'zini "xudoning qamchisi" emas, xudodanda kuchliroq ekanligiga da'vo qiladi va Qur'onni yoqib yuborishni buyuradi.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu voqealarda Temurlang xudoning borligiga shubha qilmaydi, chunki asarning har ikkala qismida ham xudo ko'p eslanadi va birinchi qismda uning "xudoning qamchisi" (scourge of god) ekanligi uch marta, ikkinchi qismda esa o'n uch marta tilga olinadi, biroq o'zining taqdirini o'zi hal qilishiga hamda mutlaq erkin shaxs g'oyasiga tayanadi.

Dissertatsiyaning **"O'zbek adiblari Abdulla Oripov va Pirimqul Qodirov ijodida Amir Temur obrazi"** nomli ikkinchi bobi "Abdulla Oripovning "Sohibqiron" asarida Amir Temur shaxsiyatining tasviri", "Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida Amir Temur obrazining yaratilishi", "Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" ilmiy badiasida tarixiy faktlarning berilishi" nomli uch fasldan tarkib topgan.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" asarida Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyatidan ko'ra, uning shaxsiyati, ruhiy holati, insonlarga bo'lgan munosabati, oila, jamiyatga nisbatan qarashlari hamda ichki kechinmalari yorqin ranglarda tasvirlangan. Bu asar Amir Temurni lashkarboshi sifatida emas, balki inson sifatida ochib beruvchi kamyob asarlardan biridir. Buning sababini esa Mirzayev Saydullaning "Hayot va adabiyot" kitobida Abdulla Oripovga berilgan ta'rifdan tushunish mumkin: "Abdulla she'riyatga hech qachon ermak deb qaramaydi. Uni doimo jon ishi, vijdon ishi deb biladi. Shuning uchun ham shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi."¹¹

Bu asarda sohibqironning dunyoning yarmini egallagan buyuk davlat tuzishdan maqsadi bosqinchilik emas, balki har bir insonning xavsizligi ta'minlangan, jamiyatda adolat o'rnatilgan, istibdoddan ozod, hur va obod, buyuk davlat tuzish orzusini amalga oshirish yo'lida his qilgan qalb kechinmalari ochib berilgan. Asarni o'qiganda buyuk shaxsning ichki dunyosi yaqqol namoyon bo'ladi. Dramada bosh qahramoning psixologik shakllanib borishi va buyuk shaxs darajasiga ko'tarilishi birin ketin ochib berilgan.

"Sohibqiron" she'riy dramasida Amir Temur obrazidan tashqari sulton Boyazid, Bibixonim, Amir Husayn, Ahmad Yassaviy, Ibn Arabshoh, Said Baraka, Kayxisrav hamda Mironshoh kabi tarixiy obrazlar ham yorqin ranglarda tasvirlab berilgan.

¹¹ Mirzaev Saydulla. Hayot va adabiyot. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 203.

Asarda sohibqiron urush harakatlarida emas, balki o'ylovlar ichida namoyon bo'ladi. Dramada bosh qahramonning insonlarga bo'lgan munosabati jumladan, ayollarga bo'lgan cheksiz hurmati Bibixon, Uljoy Turkon va Xonzodabegim obrazlariga bo'lgan muomalasida, ota sifatidagi xislatlari esa uning o'g'li Mironshoh va nevarasi Ulug'bek Mirzolar bilan bo'lgan dialoglarda yaqqol namoyon bo'lgan.

Asarda bosh qahramonning mehribon va g'amxo'r inson bo'lishi bilan birgalikda, haqiqat yo'lida qattiqqo'llik ko'rsatishi va adolatli ekanligi ochib berilgan. "Sohibqiron" asarining boshida Abdulla Oripov Amir Temurning oddiy satarosh bilan bo'lgan suhbatini keltiradi va suhbat davomida sohibqironning naqadar samimiy inson ekanligini ko'rsatadi. Shu birgina parcha sohibqironida kibarning bo'lmaganligini va unga kalondimoqg'lik begona ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Amir Temur uchun shoh va gado farq qilmaganligi va u insonning shaxsiy hislatlariga qarab baho bergan.

Asar davomida Amir Temurning qudratli jahongir sarkarda bo'lishiga qaramay, kuchni qilichda emas, balki adolatda deb bilishi va kuch ishlatishdan ko'ra odillik boshqaruvda yaxshiroq samara berishi hamda "Kuch - adolatda" degan shior bilan yashashi ta'kidlanadi.

She'riy drama davomida Abdulla Oripov sohibqiron hayotidan olgan lavhalarini shunday mohirlik bilan joylashtirganki, satarosh bilan bo'lgan suhbatda Amir Temurning samimiyligiga urg'u berilgan bo'lsa, keyingi sahnada qaynog'asi fitnakor Amir Husayn bilan bo'lgan suhbatda bosh qahramonning qanchalik ulkan sabr egasi ekanligi va o'z hislarini boshqara oladigan inson sifatida namoyon bo'ladi. Bu parchada Amir Temurning ishonchli lashlari Amir Husaynni qo'llari kishanlangan holda sohibqiron huzuriga olib kelishadi, shunda Amir Temur uning qo'llarini bo'shatishni buyuradi va Amir Husayn bunga arzimasada uning qayniog'alik rutbasiga mos hurmat ko'rsatadi.

Sohibqironning o'g'li Mironshohning xotini Xonzodabegimning Amir Temur huzuriga kelishi tasvirlanadi. Xonzodaning ko'zlari yig'idan shishgani hamda yuzlari zarbdan ko'karganligini ko'rgan Sohibqiron, bularning sababini so'raydi. Xonzoda Mironshohning kechalari ichib kelayotganligini, mast holatda unga musht tushirayotganligini aytib yig'laydi. Shunda Sohibqiron:

Kechiring, kelin...

Boshim yerga tekkunchalik egilamanu,

Sizdan uzr so'rayman men –

Qaynotangiz!¹²

Amir Temur buyuk sarkarda bo'lishiga qaramay, o'g'lining johilona qilmishi tufayli, kelinidan bosh egib kechirim so'rayapti, bundan bosh qahramonning naqadar oliyhimmat va adolatli ekanligini bilib olishimiz mumkin. Sohibqironning ushbu sahnadagi gaplaridan uning hammani teng ko'zda ko'rishini, o'zi qilmagan ish uchun ham kelinidan kechirim so'ray oladigan odil podshoh va qaynota.

Bu suhbatdan so'ng Temur o'g'lini yoniga chaqirib, ko'plab nasihat beradi. Shohlar-u, nabilar va hatto payg'ambarlar ham ayol zotidan tug'ilishlarini,

¹² Oripov Abdulla. Sohibqiron. – Toshkent: Nodirabegim, 2020y. – B. 39.

shunday ekan ayolning hurmat-ehtiromi yuksak darajada bo'lishi kerakligini aytadi. Suhbat davomida Eron shohining boshini qonga bo'ktirgan, mamlakat sarhadlarini yovuz dushmanddan ozod qilgan momomiz, Turon zamin malikasi To'maris tilga olinadi. Sohibqiron o'g'li Mironshohdan o'z jufti haloli Xonzodabegimga nisbatdan qilgan xunuk harakatlari uchun juda xafsalasi pir bo'lganligini aytib, uni qirq kun zindonband etadi.

Amir Temur o'z atrofida mamlakatning eng oqil fuzallolarini yig'ib, biron masalani hal etish uchun muntazam kengash yig'ib, ular bilan maslahat qilgan adolatli, zukko hukmdor. Sohibqironning kechirimli ekanligi asarda sulton Boyazid obrazi bilan bo'lgan voqealarda o'z aksini topgan. Kimki haddidan oshsa, u kim bo'lishidan qat'iy nazar Amir Temur albatta jazosiz qoldirmasligi qaynog'asi Amir Husayn va o'g'li Mironshoh bilan bo'lgan vaziyatda keng tasvirlangan. Insonlarni ezgu amali uchun mukofotlashi esa Hofiz Sheroziy va Qosimbek misollarida ochib berilgan. Uning mardligi va adolatpeshaligi Boyazid mag'lub bo'lgan bo'lsa ham, uning o'g'illarini Rumning barcha viloyatlariga bo'lib berganligida ko'rinadi.

Bosh qahramonning diplomatik qobiliyati uning Farang elchisi Ioan Sultoni hamda Bovarlar vakili Shiltberger bilan bo'lgan suhbatida ham nayon bo'lgan. Sohibqiron ikkala elchilarga Rum sultonini unga nisbatan gijgijlagan aslida shu elchilar ekanligini hamda xushomadlar, yolg'on iltifotlar bilan maqsadlarini yashira olmasliklarini sezdiradi.

*Meni soda osiyolik deya o'ylamang
Juda yaxshi bilaman men murodingizni
Rum sultonin menga qarshi gijgijladingiz,
Oqibatda qutuldingiz uning zulmidan.¹³*

Amir Temurning ijod ahliga bo'lgan alohida hurmati uning Hofiz Sheroziyga bo'lgan munosabatida o'z aksini topgan. Kazo-kazo elchilarni qabul qilayotib o'zini sovuqqon tutgan Temur, bir qashshoq shoirning kelganini eshtib, shodligini yashira olmaganligi asarda yaqqol nayon bo'lgan. Sovuqqon amir ko'zlari quvonchdan porlagan she'riyat shinavandasiga aylanib qoladi. Amir Temurning huzuriga kelgan bu buyuk shoir mashhur Hofizi Sheroziy edi. Amir Temurning ilm ahlini qattiq hurmat qilganligi, ulamolar va fozillarni o'ziga yaqinlashtirgani, oqilu donolar, oriflar hamda arboblarni e'zozlaganligi "Temur tuzuklari"da ham aks etgan.

Buyuk Temuriylar saltanati asoschisi, umri bo'yi bironta jangda mag'lub bo'lmagan, xalqi uchun yonib yashagan adolatpasha dahoning obrazi "Sohibqiron" dramasida kamtarona xulq egasi, shuncha mol-dunyoyu, boshqaruv qo'lida bo'lishiga qaramasdan, tangri taollo qarshisida hamma bilan teng oddiy bir banda ekanligini unutmagan holda tasvirlangan.

*Muhammad Qovchin
A'lohzrat
A'lohzrat
Temur*

¹³ O'sha manba. – B. 56.

Men Hazrat emas,

*Men ham Temur deb atalmish oddiy bir banda.*¹⁴

O‘lim shamoli juda yaqinlashganligini sezib turgan Temur fursatni boy bergisi kelmaydi, o‘zini ayamaydi, lashkarning olg‘a borishi uchun ham ularga sarkardalik qilib borishni tanlaydi. Temur buyuk davlatiga, xalqiga, lashkariga jonini fido qila oladigan hukmdor.

Sohibqiron qarib qolganligiga qaramay, yer yuzini Chin xavfidan qutqarmoq maqsadida Xitoy tomon yo‘l olgan holda tasvirlanadi. Qahraton qish pallasida, Sibir sovug‘idanda qattiq sovuqda, katta sonli lashkari bilan Rossiya o‘rmonlari tomon yo‘lga chiqishni rejalashtiradi. Amir Temur amirlari va sarkardalari bilan suhbat quradi. U havoning juda sovuqligini va yo‘lning esa hali ancha olis ekanligini ta‘kidlab, lashkarning holi va kayfiyati bilan qiziqadi. Sarkardalardan biri Barlos bahodir qahraton qish ta‘sirida askarlarning ruhi siniqligini va kayfiyatlari lanj ekanligini aytadi. Shunda sohibqiron o‘zi betob bo‘lishiga qaramay, bu sovuq ular uchun hech narsa emasligini ko‘rsatish, lashkarning kayfiyatini ko‘tarish va askarlarni ruhlantirish uchun qor bilan qoplangan yalangtepada lashkarlarning ko‘z oldida soch oldirishga ahd qiladi va sartaroshini chorlashni buyuradi.

Sartarosh ishini bitirgan mahal, sohibqiron mening ham ishim bitdi deb o‘lim shamoli yaqinligini qalbining tub-tubidan his etayotganligini ko‘rsatadi va so‘lg‘in qadamlar bilan chodiriga zavjasi Bibixonim hamda nevaralari Pirmuhammad va Ulug‘beklarni chorlaydi. Mirzo Ulug‘bek sohibqironga yuzlanib “*A‘lohzrat*” deb murojaat qiladi. Ulkan saltanat asoschisi esa umri so‘ngida ham o‘zining aziz jigarbandlari uchun qadrli ota va sevimli bobo ekanligini, rafiqasi uchun suyukli yor ekanligini his qilgisi keladi. Shunda sohibqiron “*Hazrat emas, Bobo degil. Bobojonim de*¹⁵”, - deb mehr bilan javob beradi. O‘limi oldidan davomchilariga davlat boshqaruvida va xalq bilan munosabatlarda odil bo‘lishni nasihat qiladi.

2001yilda yozilgan “Ona lochin vidosi” romani Amir Temur va uning avlodlari, xususan sohibqironning o‘g‘illari, nevaralari, chevaralari haqidagi bebaho asar bo‘lib, unda Temuriylar saltanatida yorqin iz qoldirgan xonzoda, sohibqironning sevimli kelini, Shohrux Mirzoning suyukli rafiqasi, Ulug‘bekning dono onasi bo‘lmish Gavharshodbegim siymosi go‘zal badiiy bo‘yoqlarda gavlantirilgan. Ushbu asarning bosh qahramoni Gavharshodbegim bo‘lib, asarda uning boshidan kechirgan yaxshi yomon kunlari tarixiy faktlarga qorishgan holda tasvirlangan.

